SHE'RIYAT VA MUSIQA SINTEZI: MUSIQIY OBRAZLARNING ESTETIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Termiz filiali o'qituvchisi ***Sultonqulova Shaxnoza***

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida musiqa san'ati bilan uyg'unlashuv jarayoni ijtimoiy-madaniy hamda estetik omillar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda she'riy matnda musiqiy obrazlarning yuzaga kelish manbalari, ularning lirik ifodadagi o'rni va semantik imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek she'riyatida musiqa va so'z mutanosibligi, musiqiy obrazlar orqali inson ruhiyati va hissiy kechinmalarini ifodalashning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Abdulla Oripovning "Nay", Eshqobil Shukurning "Chanqovuz" hamda "Alla ta'rifi" she'rlari misolida musiqiy obrazlarning badiiy-estetik va semantik xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Аннотация. В данной статье на основе социально-культурных и эстетических факторов анализируется процесс гармонизации современного узбекского стихосложения с музыкальным искусством. В исследовании раскрываются источники возникновения музыкальных образов в поэтическом тексте, их роль в лирическом выражении и семантические возможности. Также анализируются пропорциональность музыки и слова в современной узбекской поэзии, специфические аспекты выражения человеческой психологии и эмоциональных переживаний через музыкальные образы. В рамках исследования на примере стихотворений Абдуллы Орипова «Най», Эшкобила Шукура «Чанковуприорityз» и «Описание Аллы» («Alla ta'rifi») демонстрируются художественно-эстетические и семантические характеристики музыкальных образов.

Abstract. This article analyzes the process of convergence between modern Uzbek poetry and the art of music based on socio-cultural and aesthetic factors. The research highlights the sources of musical imagery within poetic texts, their role in lyrical expression, and their semantic potential. Furthermore, it examines the harmony of music and word in contemporary Uzbek poetry, as well as the unique aspects of portraying human psychology and emotional experiences through musical motifs. Within the scope of the study, the artistic, aesthetic, and semantic characteristics of musical images are demonstrated through the analysis of Abdulla Oripov's poem "Nay" (The Flute) and Eshqobil Shukur's poems "Chanqovuz" (The Jew's Harp) and "Alla ta'rifi" (Description of the Lullaby).

Kalit so'zlar. San'at, musiqa, she'riyat, sintez, musiqiy obraz, chanqovuz, nay, alla, estetik ifoda, semantika.

San'at inson tafakkuri va estetik dunyoqarashining eng muhim ifoda shakllaridan biri hisoblanadi. U turli ko'rinishlarda — adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.di. Zamonaviy estetik qarashlarga ko'ra, san'at turlari o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Ya'ni, bir san'at turi boshqa bir san'at turining ifoda vositalaridan samarali foydalanishi mumkin. Masalan, she'riyatda musiqiylik muhim o'rin tutadi, musiqa esa ko'pincha ma'lum obraz va g'oyalarni ifodalashda adabiylikka yaqinlashadi. Bu holat san'atlararo sintez jarayonining yorqin ko'rinishidir. "San'at turlarining o'zaro integratsiyasi ijodkor tafakkurining kengayishiga, yangi uslub va yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu jarayon nafaqat san'atning estetik qiymatini oshiradi, balki uning jamiyatdagi ta'sir doirasini ham oshiradi. "...bir san'at turi boshqa san'atning ifoda vositalarini o'zlashtirish orqali o'z imkoniyatlarini kengaytiradi". [1;7] XXI asr she'riyati shakliy, semantik jihatdan yangilanib musiqa san'atiga

xos ifoda shakllarini o'zlashtirib, zamonaviy o'quvchining estetik ehtiyojlarini qondiruvchi obrazlarni yaratdi. Shoir she'rda ijtimoiy dardni musiqiy obrazlar bn parallel qo'yadi. Bu uslub hus-kechinmalarning kitobxonga yuqtirilishida muhim o'rin tutadi. Bunda shoir muayyan holatni musiqiy obrazlar bilan tenglashtirish orqali o'quvchi qalbida yaxlit voqelikni obrazli va ritmik tarzda jonlantiradi. Fitratning musiqiy madaniyat va badiiy did masalalariga oid qarashlari ham "...musiqani faqat texnik mahorat emas, balki estetik tafakkur shakli" [2;320] sifatida ko'rishga undaydi. She'riyat va musiqa sintezi — inson his-tuyg'ularini, ruhiy kechinmalarini va falsafiy dunyoqarashini eng yuqori darajada ifodalovchi san'at turlarining uyg'unligidir. Ushbu sintezda musiqiy obrazlar so'zning semantik (ma'noviy) yukini tovushlarning estetik (go'zallik) xususiyatlari bilan birlashtirib, tinglovchida yaxlit badiiy tasavvur hosil qiladi. "Musiqiy ohang, ritm va melodiyalar orqali o'quvchilar insoniy tuyg'ularni his etadi, quvonch, hayajon, sog'inch kabi holatlarni musiqiy obrazlar orqali anglay boshlaydi. Bu jarayon estetik idrokning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, o'quvchilarning ichki dunyosini boyitadi". [3;70] Musiqa va she'riyat uyg'unligi tinglovchida hissiy uyg'onishni ta'minlaydi, melodik go'zallik va ohangrang-barangligi orqali estetik zavq bag'ishlaydi.

"Musiqiy ma'noni intonatsion-semantik doirada tahlil qilishda Asafyevning intonatsiya nazariyasi muhim o'rin tutadi. Uning yondashuvi musiqiy ma'noni tirik intonatsion amaliyot bilan bog'lab, musiqaning ijtimoiy va tarixiy qatlamlarini ko'rsatadi. Tadqiqotlar Asafyevning "intonatsiya"ni semantik energiya sifatida ko'rish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi". [4;163] Musiqiy obrazlar she'riyatdagi lirik qahramonning ruhiyati, kechinmalari (sevgi, armon, orzu)ni yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, Abdulla Oripov ijodida nay, dutor kabi

musiqa asboblarini badiiy obraz darajasida ifoda etilishi kuzatiladi. Shoirning "Nay ber, do'stginam" she'rida asosiy markaz — inson qalbidagi ichki kechinmalarni musiqa va she'riyat orqali ifodalash ehtiyoji. Lirik qahramon so'z bilan yetarli ifoda topa olmayotgan hissiyotlarini musiqiy cholg'ular yordamida "bo'shatish"ni istaydi.

Qani nay ber, menga dostginam
Bergil mayli rubob bolsa ham
Ber, bir nafas bo'shatib olay
To'lib ketgan yuragimni man.

She'rning markaziy g'oyasi — so'z va musiqa uyg'unligida namoyon boladi.

Qahramon qalbdagi tuyg'uni faqat she'r bilan emas, balki nay va rubob ovozi orqali to'liq ifodalash mumkinligini his qiladi. Bu yerda musiqa "ikkinchi til" vazifasini bajaradi, ya'ni so'z yetmagan joyni tovush to'ldiradi.

Qalamimning kuchi yetmadi
Hislarimni butkul to'kmoqqa

Bu misralar adabiyot va musiqa o'rtasidagi sintez ehtiyojini kuchaytiradi. "Yaproqchalarning shivirlashi" obrazi orqali tabiat ham musiqa sifatida tasvirlanadi. Demak, dunyo o'zi ham bir katta "simfoniya"ga o'xshatiladi. Lirik qahramon ichki kechinmalarini faqat so'z bilan emas, balki cholg'u tovushlari va tabiat musiqasi orqali ham ifodalashga intiladi. Bu esa she'rga chuqur emotsional va estetik ta'sir beradi. She'rdagi "nay", "rubob", "shivirlagan yaproqlar", "tebranayotgan chiroqlar" kabi obrazlar estetik jihatdan vizual va akustik go'zallikni birlashtiradi. Semantik jihatdan musiqa asbobi ushbu she'rda hisni ifodalash tili, ruhiy tozalanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. She'riyat va musiqa sintezi o'zbek she'riyatini tashqi tasvirdan ichki psixologik lirizmga olib

chiqib, she'rni musiqa bilan teng estetik darajaga yaqinlashtiradi. Qolaversa, musiqiy obrazlarning semantik yuk bilan boyitilishi natijasida voqelik emas, uning ruhiy aks-sadosi tasvir obyektiga aylandi. Musiqa tashqi ohang emas, ichki kechinma tiliga aylandi.

Shoirning "Nay" she'rining semantik yadrosi asarda markaziy obraz sifatida berilgan nay timsoli orqali ochiladi. Ushbu obraz ko'p qatlamli ma'no yukiga ega bo'lib, u nafaqat musiqa asbobi, balki inson ruhiy olamining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Yashnardi u adirda durkun,
Epkinlarga ochgancha quchoq.
Keldilaru odamlar bir kun,
Tanasiga sanchdilar pichoq.

She'rda nayning yaratilish jarayoni — qamishning kesilishi, ichining bo'shatilishi va undan kuy chiqishi — izchil tasvirlanadi. Mazkur jarayon semantik jihatdan inson hayotidagi ruhiy kechinmalar, iztirob va sinovlar bilan qiyoslanadi. Ya'ni, nayning tovush chiqarishi uchun uning tanasiga jarohat yetkazilishi zarur bo'lganidek, inson qalbidan ham chinakam tuyg'u va ijod namoyon bo'lishi uchun u ma'lum darajada iztirobni boshdan kechirishi lozim.

Tahlillarga ko'ra XX asr o'zbek she'riyatida shaxs qalbida kechgan tuyg'ularning musiqiy-poetik ifodasiga e'tibor kuchaya boshlagan. Ijodkorlar mavjud ijtimoiy voqelikni emas, balki uning inson qalbida uyg'otgan taassurotlar-u kechinmalarni musiqiy obrazlar vositasida she'riy ifodaga sola boshladi. Ayniqsa, Eshqobil Shukur ijodida zamonaviy o'zbek she'riyatida musiqa va she'riyat uyg'unligining badiiy ko'rinishlari yaqqol namoyon bo'ladi. U o'z ijodi bilan badiiy tasvirda ham, she'riyat va musiqa o'rtasidagi uyg'unlikni ochishda ham

badiiylashmalarni taqdim etadi. Gegel nazariyasiga ko'ra "...hissiy element endi bu yerda ongning mazmunidan uzoqlashadi, ruh esa bu mazmunni o‘zi va o‘z-o‘zi uchun botinan belgilab, tasavvurga aylantiradi; bu tasavvurni ifodalashda tovushdan faqat biror-bir qadriyat va mazmunsiz holat tariqasida foydalanadi. Oqibatda oddiy harflar tovushlarga aylanadi, ruh nafaqat oddiy belgi-ishora tarzidagi ovoz, balki yaqqol ko‘rinishni ham hosil qiladi. Musiqa hamda poeziya subyektiv san’atdir". [5;111] Poeziya go‘zallikning barcha shakllariga moslashib, ular orqali keng ommaga yetib boradi. Ayniqsa, musiqiylik unsurlari — ritm, intonatsiya, takror va ohang — poetik tasvirning estetik mukammalligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, bu unsurlar semantik jihatdan ham muhim bo‘lib, obrazlarning ma’no qatlamini chuqurlashtiradi, ichki kechinmalarni nozik ifodalash imkonini beradi. Natijada, poeziyaning asl mohiyatini tashkil etuvchi badiiy fantaziya musiqiy va tasviriy elementlar uyg‘unligida go‘zallik yaratishning muhim omiliga aylanadi. Bu sintez orqali she’riyat nafaqat tasviriy, balki eshitiladigan san’at sifatida ham o‘zining estetik va semantik imkoniyatlarini to‘la namoyon etadi.

Eshqobil Shukurning "Ruhim" she’rida boshidan oxirigacha takrorlanib keluvchi “Ahay-aha-hay" ohangi — sof musiqiy element sifatida she'rning fonetik musiqiyligini ta'minlaydi. U xalq qo‘shiqlariga xos naqorat ya'ni refren vazifasini bajaradi hamda ritmik barqarorlikni ta’minlaydi. Bu esa she’rni o‘qishda emas, balki kuylashga mos matnga aylantiradi. Bu ohang semantik jihatdan aniq ma’noga ega emas, lekin ruhiy holatdagi jo'shqinlikni ifoda etadi. Anglashiladiki, she'rda musiqa ma’nodan ustun kelib, hissiy-estetik ta’sirni kuchaytiradi.

Musiqiy kompozitsiyani yaratishda esa takroriy va juft konstruksiyalar qo'llanilgan:

*Men **qushlarning tushlarida** ko'rinay,*

*Men **tushlarning qushlarida** ko'rinay.*

*Men **tillarning gullarida** ko'rinay,*

*Men **gullarning tillarida** ko'rinay.*

*Men **to'ylarning kuylarida** ko'rinay,*

*Men **kuylarning to'ylarida k**o'rinay.*

*Men **ko'zlarning so'zlarida** ko'rinay,*

*Men **so'zlarning ko'zlarida** ko'rinay.*

Bu usul tardu aks san'atining go'zal namunasi bo'lish barobarida she'rga ichki ritmik va melodik aylanish beradi, mazmunni chuqurlashtiradi. She'rda ishlatilgan obrazlar - qush, tush, gul, kuy, ko'z so'zlari musiqiy va poetik timsollar sifatida aks etadi. Masalan, "to'ylarning kuylari" — bevosita musiqa obrazidir. "Ko'zlarning so'zlari" — vizual va verbal obraz sintezi. "Tushlarning qushlari" — mavhumlik va erkinlik timsolini ifoda etgan.

"Chanqovuz" she'rida nomidan anglanganidek, musiqiy obraz she'r sarlavhasida aks etadi. She'rda qo'llanilgan epitetlar chanqovuzning semantik xususiyatlarini aks ettiradi.

Tilim tiyildi mening, so'zim qiyildi mening,

Po'lat til topib oldim, havo so'z topib oldim.

"Chanqovuz chanqab qoldi" takrori orqali musiqiylik orttirilgan. Semantik jihatdan chanqovuz — she'rda qalb ovozini ifoda etadi. "Dardimga chayqab oldim" misrasi juda muhim semantik yukga ega bo'lib, dard musiqa bilan aralashib ketadi. Bu holat she'riyatda og'riq orqali estetik ifoda yaratishdir. She'r davomida kuchli metaforalar - chanqovuz, qorachaqmoq, po'lat til kabilardan foydalanib takror va ritm orqali musiqiylik yuzaga chiqadi.

"... xalq og'zaki ijodining eng barqaror namunasi bo'lmish alla deyarli barcha madaniyatlarda mavjud, shuningdek, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlarga, ajdodlariga hurmat ruhini shakllantirishda xizmat qiladi". [6;340] Shu ma'noda shoir Eshqobil Shukurning "Alla ta'rifi" she'rida ham alla butun insoniyatga daxldor musiqiy-ma'naviy hodisa sifatida talqin qilinadi. Musiqiylik va so'z san'atining ma'naviy uyg'unligi bo'lmish alla hech vaqt o'z poetik-estetik ahamiyatini yo'qotmaydi. Shoir allani vaqt, tarix va ruhiyat bilan bog'lab, uni yuksak poetik darajaga ko'taradi.

U qo'shiq eng buyuk bir kundir,
Jahon shoirlarin tug'ilgan kuni.

She'r bandlari boshida takrorlanuvchi "Bolam, bir qo'shiq bor dunyoda, bolam" misrasi alla ohangiga yaqin yumshoq ritm yaratadi. "Oftobidan ruhingni boyit" - allaning ruhiy nur sifatida tasviri; "Quyoshning sutiga oladi chayib" - ona mehrining ilohiylashuvi; "Hayot ko'kraklari turadi iyib" - hayotning hissiy uyg'onishi sifatida semantik xususiyatlarni namoyon qiladi.

Maqsud Shayxzodaning shoir G'afur G'ulomga bag'ishlab yozilgan "Yaxshilik" nomli she'rning boshidayoq muhit tasviri musiqiy obrazlar orqali yaratiladi. She'r musiqa va so'z uyg'unligini o'zida aks ettirib, buni talmehlar orqali ko'rsatib beradi.

Shashmaqomlar, qo'shiqlar, o'yin, ashula –
Radio karnayidan oqar baralla...
Nafis ovozlar. Tezob tovushlar...
Pianino. Rubob. Nay. G'ijjak va tambur,
Go'yo ko'rinmas qushlar.

Misralarida musiqiy asboblarning sanab o'tilishi orqali musiqiy obrazlar tizimi shakllanadi. Ular estetik jihatdan go'zallik, uyg'unlik va nafislikni ifodalaydi, semantik jihatdan esa milliy madaniyat, an'ana va ruhiy kechinmalarni anglatadi.

She'rda musiqaning jonlantirilishi alohida ahamiyatga ega: sadolar "havoyi qushlar"ga qiyoslanadi, "uzum boshlariga qo'nadi". Bu tasvir musiqaning ko'rinmas, ammo sezilarli estetik kuchini ifodalaydi. Shu orqali muallif musiqiy obrazni vizual obraz bilan sintez qiladi — bu aynan she'riyat va musiqa birligining yorqin ko'rinishidir.

Markaziy o'rinda Mulla To'ychi va Fuzuliy obrazlari semantik xususiyatlarni ochib beadi. Fuzuliyning g'azali va To'ychining ijrosi birlashib, so'z (matn) va soz (musiqa) uyg'unligini yaratadi. She'rda estetik jihat — g'azalning nafisligi va kuy orqali uning go'zalligining kuchayishi; semantik jihat esa — ishq, hijron, insoniy tuyg'ularning yanada chuqurroq ochilishi orqali namoyon bo'ladi. She'rdagi "baxmal ovoz", "yoniq xonish", "ming bitta ma'ni" kabi ifodalar musiqaning estetik ta'sirini kuchaytiradi. Shuningdek, "ikki zo'r polvon" (ya'ni shoir va hofiz) obrazi orqali san'at turlari o'rtasidagi hamkorlik ko'rsatiladi. Ular "nafosatni yashatmoq uchun" birlashadi. Bu fikr she'rning asosiy g'oyasini ochadi: she'riyat va musiqa sintezi — go'zallikni abadiylashtiruvchi kuch sifatida ifodalanadi.

So'z bilan soz va ovoz bo'lishib hamroz,

Vaqt torida yurarlar misoli dorboz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, she'riyat va musiqa sintezi zamonaviy o'zbek adabiyotida badiiy tafakkurning yangicha bosqichga ko'tarilganini namoyon etadi. San'at turlarining o'zaro integratsiyasi natijasida poetik matn nafaqat ma'no tashuvchi vosita, balki ohang, ritm va intonatsiya orqali hissiy-

estetik ta'sir kuchiga ega murakkab badiiy tizimga aylanadi. Musiqiy obrazlarning she'riyat tarkibiga faol kirib kelishi esa lirik qahramonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini yanada chuqurroq va ta'sirchanroq ifodalash imkonini beradi. Abdulla Oripov, Eshqobil Shukur, Maqsud Shayxzoda ijodi misolida ko'rish mumkinki, musiqiy obrazlar semantik yukga ega badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Nay, rubob, chanqovuz kabi timsollar inson qalbining iztiroblari, orzulari va kechinmalarini ifodalovchi ramziy belgilar darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, fonetik takrorlar va xalqona ohanglar orqali she'rning musiqiyligi kuchaytirilib, u o'quvchi yoki tinglovchiga bevosita hissiy ta'sir o'tkazuvchi san'at asariga aylanadi. Umuman olganda, she'riyat va musiqa uyg'unligi san'atning estetik va semantik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qur'onov S. Egiz san'atlar. T.: "Akademnashr", 2018.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000.
3. Xadjixadjayeva F. Musiqa va tasviriy san'at darslarida estetik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. Maqola. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 12-may 2025-yil
4. Asafyev B. V. Muzykalnaya forma kak protsess. Leningrad: Muzyka, 1971.
5. Gegel. Estetika. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012
6. Mahmudov N. Til va madaniyat. T.: "Yangi asr avlodi", 2009.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
8. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

9. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

10. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.